

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “ESKI FONUS” SHE’RI BADIY-G’OYAVIY TAHLILI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg o‘zbek adabiyotida ikki millat va madaniyat chorrahasida shakllangan noyob ijodkor sifatida o‘ziga xos ovoz egasi. U rus tilida o‘z ijodiy faoliyatini olib borgan bo‘lsa-da, uning ruhiy manzili Toshkent, Sharq nafasi, o‘zbekona insonparvarlik va mehr bilan chambarchas bog‘langan. Shoir ijodiy yo‘lida G‘arb va Sharq badiiy tafakkurlari bir nuqtada tutashib, o‘ziga xos bo‘lgan ma‘naviy makonni hosil qiladi. Shu sababdan ham uning asarlarida faqat insoniy tuyg‘ular emas, tarix, xotira, madaniyat kabi mavzular ham tez-tez ko‘tarilib turgan. Faynberg ijodiy yo‘li serqirra va semahsul bo‘lib, u o‘nlab she‘riy to‘plamlar, yirik tarjima asarlari va ssenariylar muallifi sanaladi. Uning qalamiga mansub asarlar Toshkent, Moskva va Sank-Peterburg nashriyorlarida muntazam nashr etilgan va keng kitobxonlar ommasining e‘tibor va olqishlariga sazovor bo‘lgan. Shoir nafaqat o‘zi yaratgan asarlari bilan, balki tarjima asarlari bilan ham millatlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Avvalroq aytib o‘tganimizdek, Faynberg asarlarida tarix, xotira kabi mavzular ham ko‘p uchraydi. Shoir ijodining markaziy xususiyatlaridan biri ham inson qalbi, xotira va tarixiy ongni bir butun sifatida poetik qamrab olish. Ijodkor nazarida insonning tashqi ko‘rinishi, shon-shuhrati yoki balandparvoz gaplari emas, uning ichki olamida yashirin nozik tuyg‘ulari, kechinmalari haqiqiy qadriyatdir. Shu bois u ijodida tarixiy obrazlar va madaniy timsollar vositasida zamonaviy insonga xos ruhiy holatni ochib berishga intiladi. Shoir har doim ichki haqiqatni, chin hissiyotlarni, insoniy beg‘uborlik va poklikni o‘z asarlari orqali himoya qilib kelgan ijodkor hisoblanadi. Uning poetik olami soxta balandparvozlik va

mavhum romantik kayfiyat beradigan tasvirlardan xoli.Faynberg ortda qolgan shonshuhuratga maftun bo'lib qolmay,insonning ichki go'zallini qadrlaydi.Shu jihatdan,uning ijodi har doim ma'naviy tanlov,ichki rostlik va qalbning samimiyligini ustuvor yo'nalish sifatida belgilab,shu g'oyalarni o'quvchiga tushunarli tarzda tasvirlab berishga intiladi.Shoir o'zbek va rus adabiy makonidagi ijodkorlar orasida aynan shu tomonlama ajralib turadi va o'zbek adabiyotida chuqur iz qoldiradi.Faynberning butun ijodiy yo'li samimiyligni soxtalikdan ajratish,ichki haqiqatni yuksak qadrlash va inson qalbining oliy qadriyatlarini himoya qilishga bag'ishlangan.Shoir tomonidan yozilgan "Eski fonus" she'ri ham uning mana shunday poetik qarashlarini o'zida jamlagan,xotira va haqiqat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni nozik ta'riflagan asarlardan sanaladi.Mazkur maqolada Aleksandr Faynberg tomonidan bitilgan mana shu she'ning badiiy-g'oyaviy tahlilini ko'rib chiqamiz.

Abstract: Alexander Arkadyevich Feinberg is a unique creator of Uzbek literature, formed at the crossroads of two nations and cultures, with a unique voice. Although he conducted his creative activity in Russian, his spiritual destination is closely connected with Tashkent, the breath of the East, Uzbek humanity and love. In the poet's creative path, Western and Eastern artistic thoughts converge at one point, creating a unique spiritual space. For this reason, not only human feelings, but also topics such as history, memory, and culture were often raised in his works. Feinberg's creative path was diverse and fruitful, and he is considered the author of dozens of poetry collections, large-scale translated works, and screenplays. His works were regularly published in Tashkent, Moscow, and St. Petersburg publishing houses and received the attention and acclaim of a wide readership. The poet not only created his own works, and perhaps even translated works, serve as a bridge between nations. As we mentioned earlier, topics such as history and memory are also common in Feinberg's works. One of the central features of the poet's work is the poetic coverage of the human soul, memory, and historical consciousness as a whole. In the eyes of the author, the true value is not a person's appearance, fame, or lofty words, but rather the subtle feelings and experiences hidden in his inner world. Therefore, in his work, he strives to reveal the spiritual state of modern man through historical images and cultural

symbols. The poet is a creator who has always defended inner truth, true feelings, human innocence and purity through his works. His poetic world is devoid of images that give false loftiness and abstract romantic mood. Feinberg is not fascinated by the glory left behind, but appreciates the inner beauty of man. In this regard, his work is always He sets spiritual choice, inner truth, and sincerity of the heart as a priority, and strives to describe these ideas in an understandable way for the reader. This is precisely what distinguishes the poet among the creators of the Uzbek and Russian literary space and leaves a deep mark on Uzbek literature. Feinberg's entire creative path is dedicated to distinguishing sincerity from falsehood, highly appreciating inner truth, and protecting the highest values of the human soul. The poem "Old Lantern" written by the poet is also one of the works that embodies such poetic views of his, delicately describing the complex relationship between memory and reality. In this article, we will consider the artistic and ideological analysis of this poem written by Alexander Feinberg.

Аннотация: Александр Аркадьевич Файнберг — уникальный творец узбекской литературы, сформировавшийся на стыке двух народов и культур, обладающий неповторимым голосом. Хотя он творил в России, его духовное предназначение тесно связано с Ташкентом, дыханием Востока, узбекским гуманизмом и любовью. На творческом пути поэта западные и восточные художественные идеи сходятся в одной точке, создавая уникальное духовное пространство. По этой причине в его произведениях часто поднимались не только человеческие чувства, но и такие темы, как история, память и культура. Творческий путь Файнберга был разнообразным и плодотворным, он считается автором десятков поэтических сборников, масштабных переводов и сценариев. Его произведения регулярно публиковались в издательствах Ташкента, Москвы и Санкт-Петербурга и пользовались вниманием и признанием широкой читательской аудитории. Поэт не только создавал собственные произведения, но, возможно, и переводы, которые служат мостом между народами. Как уже упоминалось, темы истории и памяти также часто встречаются в творчестве Файнберга. Одной из центральных особенностей творчества поэта является поэтическое освещение человеческой души, памяти и исторического сознания в

целом. В глазах автора истинная ценность заключается не во внешности человека, славе или возвышенных словах, а в тонких чувствах и переживаниях, скрытых в его внутреннем мире. Поэтому в своем творчестве он стремится раскрыть духовное состояние современного человека через исторические образы и культурные символы. Поэт – творец, который всегда защищал внутреннюю истину, истинные чувства, человеческую невинность и чистоту в своих произведениях. Его поэтический мир лишен образов, придающих ложную возвышенность и абстрактно-романтическое настроение. Файнберг не очарован оставленной славой, а ценит внутреннюю красоту человека. В этом отношении его творчество всегда ставит во главу угла духовный выбор, внутреннюю истину и искренность сердца, стремясь изложить эти идеи в понятной для читателя форме. Именно это отличает поэта от творцов узбекской и русской литературы и оставляет глубокий след в узбекской литературе. Весь творческий путь Файнберга посвящен различению искренности от лжи, глубокому пониманию внутренней истины и защите высших ценностей человеческой души. Поэма «Старый фонарь», написанная поэтом, также является одним из произведений, воплощающих подобные поэтические взгляды, тонко описывающих сложную взаимосвязь между памятью и реальностью. В данной статье мы рассмотрим художественно-идеологический анализ этой поэмы Александра Файнберга.

Kalit so‘zlar: shoir, ijod, inson qalbi, samimiylik, ichki haqiqat, tirik tuyg‘u, хотира, tarixiy ong, lirik qahramon, ruhiy uyg‘unlik, soxta romantika, haqiqiy sevgi, o‘tmish, bugungi kun, samimiy kechinma, ma’naviy poklik, ruhiy izlanish, qadriyatlarni qadrlash, ichki rostlik.

Keywords: poet, creativity, human soul, sincerity, inner truth, living feeling, memory, historical consciousness, lyrical hero, spiritual harmony, false romance, true love, past, present, sincere experience, spiritual purity, spiritual search, appreciation of values, inner truth.

Ключевые слова: поэт, творчество, человеческая душа, искренность, внутренняя правда, живое чувство, память, историческое сознание, лирический герой, духовная гармония, ложная романтика, истинная любовь, прошлое, настоящее, искренний опыт, духовная чистота, духовный поиск, оценка ценностей, внутренняя правда.

Alksandr Faynbergning “Eski Fonus” she’ri uning ijodiy olamining o’ziga xos jihatlari, ijodkorning ruhiy, ma’naviy va badiiy qarashlarini o’zida aks ettiruvchi asarlardan biridir. She’rning asosiy mazmuni - inson qalbidagi samimiylik, ichki haqiqat, tirik tuyg’ular va ma’naviy poklikni qadrlashdir. Faynberg o’tmishdagi shon-shuhrat, tarixiy shaxslar haqida so’z yuritar ekan, ularga romantik yoki ulug’vorlik ruhini bermasdan ular orqali inson tabiatiga xos bo’lgan murakkabliklarni yoritishga harakat qiladi. U tarixga aylanib borayotgan, xira yulduz yanglig’ timsollarning misolini ta’kidlash o’tish orqali qadriyatlar qalbdagi tirik tuyg’ular - u samimiyatda yashirin degan g’oyani e’tirof etadi.

She’rda eski fonus ramziy timsol bo’lib, bu fonus o’tmishning so’nib ketgan, endi quvvatini va ro’shnoligini yo’qotgan eski buyumidir. Shoir endi bu yorug’likka intilishni, unga mahliyo bo’lib qolib ketishni butunlay rad etadi. Nega? Chunki uning uchun haqiqiy nur, yorug’lik manbai qalbdagi o’sha beg’uborlik, samimiyat, har doim tirik tuyg’ular. Shuning uchun ham u she’rning birinchi qatorida shu jumlani ta’kidlaydi: “Kuylama u eski fonusni menga”. Bu esa shoirning qadriyatlar tanlovi va ruhiy jihatdan egallagan pozitsiyasini aniq ko’rsatib beradi. Unga tarixiy obro’, mashhur shaxslarning qizig’i yo’q. Buning o’rniga u samimiyatni yuksaklarga ko’taradi doim. “Ularning shu’lasi mendan ko’p yiroq” satrlarida qo’llangan “shu’la” so’zi Pushkin va Blok kabi shoirlar shuhratini bildiradi.

Kuylama u eski fonusni menga,

Pushkin yo Blok deb chekmagil firoq.

Ularning shu’lasi mendan ko’p yiroq,

Kuylama u eski fonusni menga.

Keyingi to'rtlikda she'ning tarixiy-madaniy qatlamlari ochib beriladi. "Kuylama menga Rus qahratonini" misrasida nafqat qish sovuqligi va qiyin tabiat tasviri keltiriladi, balki inson ruhiyati va tarixiy voqealarning og'irligini ramziy elementlar vositasida ifodalab beradi. Bilamizki, shoirning ota-onasi rossiyalik bo'lib, shoir o'z asarlaridan birida bu davlat uning onasini shu keng makoniga sig'dirmagani, o'zbek xalqi esa qahraton muzlatgan onasini qaynoq quchog'i bilan isitgani aytadi. "Rus qahratonini" iborasi izg'irin qishning sovuq manzarasi bilan birga, inson qalbi va ruhidagi qattqlik, sinov va ichki iztirobni bildiradi. "Qishning zamhariri yer uzra oqar" misrasida metafora xususiyatlari ko'rinib, u tarixiy voqealar qanchalik qattiq bo'lgani, insonlar ruhini qanchalik sinovdan o'tkazganini ko'rsatadi. "Bestujev izillab qayonga boqar" misrasida shoir tarixiy shaxs-Bestujev timsoliga yuzlanish orqali o'zining o'tmishga murojaatini qiladi. Bu o'rinda tarix, madaniyat va shaxsiy izlnish juda ajoyib tarzda uyg'unlashtiriladi. Faynberg o'quvchiga o'tmishda yuz bergan qattiq, ba'zida adolatsiz voqealarni eslatadi, lekin e'tiborni qalbdagi samimiylik, ichki haqiqatga qaratadi.

Kuylama menga Rus qahratonini,

Qishning zamhariri yer uzra oqar.

Bestujev izillab qayonga boqar,

Kuylama menga Rus qahratonini

She'ning uchinchi bandi ham tarixiy-falsafiy mazmun bilan yo'g'rilgan. "Menga u yo'llarni kuylamagin sen" satri orqali shoir e'tiborni tashqi voqealikka emas, ichki ruhiy qatlamga qaratadi. Bu yerda "yo'llar" ramz bo'lib, o'tmish yo'llari ma'nosini bildiradi. Shoir ularni madh etib balandparvoqlik qilmaslik kerak deganday gapiradi. Sababi u o'quvchini sun'iy ilhomga berilib ketishdan qaytarmoqchi. "Shamol ham topolmas, qorli sarhadlar" satri ekstremal iqlim tasviri orqali ishlatilgan metafora asnosida inson ruhidagi sinovlar va qiyinchiliklarni ifodalab bermoqchi. "Navjuvon, Radishchev, ovloq bekatlar" satri tarixiy shaxslarga va merosga qilingan murojaat. Shoirning fikriga qaraganda, misrada

keltirilga olimlar qilgan ishlar,ularning izlari kitobxonlar ruhiy dunyosiga teran ta'sir etadi.Biroq shoir bu siymolarni mavqe va shon-shuhrat uchun madh etgan emas.

Menga u yo'llarni kuylamagin sen,

Shamol ham topolmas, qorli sarhadlar.

Navjuvon Radishchev, ovloq bekatlar,

Menga u yo'llarni kuylamagin sen

She'r davomi ham shoirning ichki samimiyat va yurakdagi chinakam tuyg'ularga bo'lgan e'tirofini yoritishni davom etaveradi.Faynberg olislarda joylashgan,sirli va maftunkor diyorlarni kuylashni inkor etadi."Kuylama,kuylama faqat o'shani" satri orqali shoir o'quvchiga tashqi go'zallik va sirli manzaralar qalbda yashirin samimiyat o'rnini hech qachon bosa olmasligini uqtiradi.

Kuylama u sirli yurtlar haqida,

Kuylama maftunkor olis go'shani.

Kuylama, kuylama faqat o'shani,

Kuylama u sirli yurtlar haqida.

Asar so'nggi bandi esa shaxsiy va chuqur ruhiy qatlamni yoritib berishga qaratilgan.Faynberg shu o'rinda o'zini asli mavjud ham bo'lmagan soxta tuyg'ular bilan ovutmaslik kerakligini aytadi:" O'zi yo'q tuyg'uni kuylama, jonim. "Bu yerda sevgi "yo'qligi" metafora bo'lib, soxta tuyg'ularni tasvirlash uchun ishlatilagan. "Ovozing, bardoshing yetmaydi bu dam" satrida shoir qalbidagi ruhiy charchoq alomatlarini ko'ramiz.U o'quvchiga qalb va ruh hali tayyor bo'lmagan hislarni qabul qilishga qodir emas,qabul qilgan taqdirida ham bu haqiqiy bo'lmaydi deydi."O'chgay bu fonusning shu'lalari ham" satrida o'tmishning xira yorug'ligi va ilhomlari ramziy timsol orqali ko'rsatib beriladi.

O'zi yo'q sevgini kuylama, jonim,

Ovozing, bardoshing yetmagay bu dam.

O'chgay u fonusning shu'lalari ham,

O'zi yo'q sevgini kuylama, jonim.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Eski fonus” she’ri tarix, madaniyat, qadriyat va shoir shaxsiy qarashlarini bir nuqtada jamlagan durdona asar sanaladi. Bu she’r orqali shoir kitobxonlarni ichki dunyo, ruhiy poklikka va haqiqiy ma’naviy qadriyatlarga e’tibor berishga chorlaydi. “Eski fonus” she’ri shoirning ijodiy olamidagi samimiylik va insonparvarlik g’oyasining yorqin namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sohili S. She’rlar to‘plami. — Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021.
2. www.ziyouz.com — “Aleksandr Faynberg she’riy merosi” rukni ostidagi maqolalar to‘plami
3. Ruzikulova M. She’riyatda ruhiy kechinma va badiiy ifoda uyg‘unligi. — “Adabiyot nazariyasi jurnali”, №3, 2022.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
5. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.
6. <https://arm.samdhti.uz/library/download/692>